



TOSHKENT SHAHAR  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2024- yil  
yanvar-aprel

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent shahrida jami 11 910,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

### Yirik korxona va tashkilotlar

7,7

25,8

66,5

Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

# 2024- yil 1-may holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*



## Yillar kesimida soni



**3 564**

Bino va inshootlar  
qurish


**734**

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

**2 950**

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

## Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 101,5 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'naliishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'naliishi 49,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,1 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 10,1 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,2 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 40,7 foiz ulushni va 97,6 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.05.2023- y.	01.05.2024- y.	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>7 139</b>	<b>7 248</b>	<b>101,5</b>

tumanlar:

Bektemir	178	188	105,6
Mirzo Ulug'bek	936	949	101,4
Mirobod	626	641	102,4
Olmazor	523	542	103,6
Sergeli	432	443	102,5
Uchtepa	451	413	91,6
Chilonzor	869	853	98,2
Shayxontohur	543	524	96,5
Yunusobod	865	860	99,4
Yakkasaroy	724	740	102,2
Yangihayot	235	292	124,3
Yashnobod	757	803	106,1



**2024- yil 1-may holatiga ko'ra,  
Toshkent shahrida  
faoliyat ko'rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




Mirzo Ulug'bek (13,1)



Yunusobod (11,9)



Chilonzor (11,8)



## Qurilish ishlari 2024- yil yanvar- aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Toshkent shahar</b>	<b>11 910,3</b>	<b>3 066,5</b>	<b>7 920,6</b>	<b>923,2</b>
<b>tumanlar:</b>				
Bektemir	348,1	109,4	210,1	28,6
Mirzo Ulug'bek	1 955,2	410,2	1409	136
Mirobod	1 256,5	330,3	855,3	70,9
Olmazor	983,6	233,2	676,7	73,7
Sergeli	489,3	110,6	289,5	89,2
Uchtepa	579,5	147,6	365,2	66,7
Chilonzor	893,1	128,4	693,1	71,6
Shayxontohur	964,0	586,3	318,5	59,2
Yunusobod	1 775,8	659,1	1 016,2	100,5
Yakkasaroy	1 155,6	179,1	912,5	64,0
Yangihayot	288,5	71,5	143,8	73,2
Yashnobod	1 221,2	100,7	1 030,9	89,6

2024- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 066,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 149,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 25,8 % ni tashkil etdi.





# Qurilish ishlari

## 2024- yil yanvar-aprel oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





**MA’LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 60,8 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 304,5 %) Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 37,1 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 193,5 %) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,5 %i to‘g‘ri kelib, 2023-yil yanvar-aprel oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etgan holda 7920,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



66,5

2024- yil  
yanvar-aprel

72,0


2023- yil  
yanvar-aprel



**MA’LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Mirzo Ulug‘bek tumanida (1 409,0 mlrd. so‘m yoki ulushi 72,1 %), Yashnobod tumanida (1 030,9 mlrd. so‘m yoki ulushi 84,4 %) va Yunusobod tumanida (1 016,2 mlrd. so‘m yoki ulushi 57,2 %) ga to‘g‘ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 7,8 %ni tashkil etdi yoki 923,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 389,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 11 520,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 3,3 % va 96,7 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2024- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **60,0 %** i yoki **7 149,4 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**32,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 353,7 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **32,9 %** ni tashkil etdi.

**59,0 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **4 218,3 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **59,0 %** ni tashkil etdi.

**8,1 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **577,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **8,1 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>11 910,3</b>	<b>114,8</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:			
Bektemir	348,1	116,6	2,9
Mirzo Ulug‘bek	1 955,2	124,6	16,4
Mirobod	1 256,5	103,6	10,5
Olmazor	983,6	114,2	8,3
Sergeli	489,3	113,8	4,1
Uchtepa	579,5	116,0	4,9
Chilonzor	893,1	100,8	7,5
Shayxontohur	964,0	129,2	8,1
Yunusobod	1 775,8	120,8	14,9
Yakkasaroy	1 155,6	107,2	9,7
Yangihayot	288,5	129,8	2,4
Yashnobod	1 221,2	110,7	10,3



**Ma’lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko’rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

31,6

2023- yil  
yanvar-aprel

25,5

53,2

61,9

15,2

12,6

2024- yil  
yanvar-aprel



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,5 % ni tashkil etib, 2023- yil yanvar-aprel ko'rsatkichga nisbatan 6,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,7 % punktga ko'payib, 61,9 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga kamayib, 12,6 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 44,5 % ni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-aprelga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 55,5 % (1,9 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil yanvar-aprel



Kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yil yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi va 33,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 66,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.

ulushi % da

**33,4**

2023- yil  
yanvar-aprel

2023- yil  
yanvar-aprel

**66,6**

**33,1**

2024- yil  
yanvar-aprel

2024- yil  
yanvar-aprel

**66,9**

*Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi*

*Kichik korxona va  
mikrofirmalar  
ulushi*


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Toshkent shahar</b>	<b>11 910,3</b>	<b>8 324,7</b>	<b>1 712,0</b>	<b>1 873,5</b>
<b>tumanlar:</b>				
Bektemir	348,1	223,8	47,2	77,0
Mirzo Ulug'bek	1 955,2	1 354,3	215,3	385,6
Mirobod	1 256,5	937,7	182,5	136,4
Olmazor	983,6	759,5	120,2	103,9
Sergeli	489,3	360,7	74,7	54,0
Uchtepa	579,5	428,6	66,7	84,2
Chilonzor	893,1	632,1	154,0	107,0
Shayxontohur	964,0	602,6	115,8	245,6
Yunusobod	1 775,8	1 297,8	274,5	203,5
Yakkasaroy	1 155,6	758,3	221,7	175,5
Yangihayot	288,5	154,8	72,5	61,3
Yashnobod	1 221,2	814,5	167,1	239,7

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel



ulushi % da



■ Iktisoslashtirilgan qurilish ishlari   ■ Fuqarolik obyektlarini qurish   ■ Bino va inshootlarni qurish

## 2024- yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Mirzo Ulug'bek tumani (1 955,2 mlrd.so'm), Yunusobod tumani (1 775,8 mlrd.so'm), Mirobod tumani (1 256,5 mlrd.so'm), Yashnobod tumani (1 221,2 mlrd.so'm), ga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)